Iqtisodchi olimlar Norvegiyadagi davlat-xususiy sheriklik loyihalarida loyiha mulkchilik shaklining (project ownership) ahamiyatini ekonometrik usullar asosida tahlil qilganlar. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, investitsiya hajmi ortishi xususiy mulkchilik asosida amalga oshiriladigan DXSh loyihalari ehtimolini oshiradi, biroq shartnoma muddati loyiha mulkchilik shakliga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmaydi. Mualliflar loyiha mulkchiligini tanlashda investitsiya hajmi, loyiha turi va risklarni taqsimlash mexanizmini kompleks baholash davlat-xususiy sheriklik loyihalarining samaradorligini oshirishning muhim sharti ekanligini ta‘kidlaydilar [5]. Olimlar davlat-xususiy sheriklikning barqaror rivojlanishga qo‘shadigan hissasini manfaatdor tomonlar (stakeholder) yondashuvi asosida tizimli tahlil qilganlar. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, DXSh loyihalarining muvaffaqiyati nafaqat moliyaviy resurslarga, balki samarali korporativ boshqaruv, manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi hamkorlik, shaffoflik va institutsional boshqaruv sifatiga ham bevosita bog‘liq. Mualliflar barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda davlat va xususiy sektor manfaatlarini muvofiqlashtirish, javobgarlikni kuchaytirish hamda boshqaruv mexanizmini takomillashtirish DXShning uzoq muddatli samaradorligini ta‘minlovchi asosiy omillar ekanligini ta‘kidlaydilar [6].

Rybachek va Kelchevskaya davlat-xususiy sheriklikni infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirishning samarali institutsional mexanizmi sifatida baholab, uning asosiy afzalligi risklarni davlat va xususiy sherik o‘rtasida oqilona taqsimlashdan iborat ekanligini ta‘kidlaydilar. Mualliflarning fikricha, DXSh loyihalarining muvaffaqiyati institutsional muhitning rivojlanganligi, huquqiy-me‘yoriy ta‘minot, loyiha ishtirokchilarining tajribasi hamda risklarni baholash va boshqarish tizimining mukammalligiga bevosita bog‘liq. Shuningdek, noaniq risk taqsimoti, byurokratik to‘siqlar va shartnomaviy kelishmovchiliklar DXSh rivojlanishini cheklovchi asosiy omillar sifatida e‘tirof etiladi [7]. Manaxov davlat-xususiy sheriklikni sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi strategik institutsional mexanizm sifatida baholaydi. Muallifning ta‘kidlashicha, DXSh ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, innovatsiyalarni joriy etish, mahsulot sifati va eksport salohiyatini oshirish bilan bir qatorda, risklarni davlat va xususiy sektor o‘rtasida oqilona taqsimlash imkonini beradi. Shuningdek, DXShning samaradorligi huquqiy tartibga solishning mukammalligi, qulay institutsional muhit, professional loyiha boshqaruv hamda hamkorlikni samarali boshqarish tizimiga bevosita bog‘liq ekanligi asoslangan [8].

Albatta, yuqorida iqtisodchi olimlar tomonidan bildirilgan ilmiy yondashuvlarni umumlashtiradigan bo‘lsak, davlat-xususiy sheriklik munosabatlarida risklarni samarali boshqarish loyihalarning iqtisodiy samaradorligini ta‘minlovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlarda asosan risklarni davlat va xususiy sektor o‘rtasida oqilona taqsimlash, institutsional muhitni takomillashtirish, shaffof boshqaruv tizimini shakllantirish, xalqaro moliya institutlari ishtirokini kengaytirish hamda manfaatdor tomonlar o‘rtasida samarali hamkorlikni rivojlantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan.



TADQIQOT METODOLOGIYASI


Ilmiy tadqiqot davomida mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, o'zaro va qiyosiy taqqoslash, umumlashtirish, guruhlantirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, istiqbolli prognozlashtirish usullaridan samarali foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat-xususiy sheriklik loyihalari turli tashqi va ichki omillar ta'sirida amalga oshiriladi. Mazkur omillar loyihalarning bajarilish jarayoni, samaradorligi va yakuniy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday risklar tarkibiga iqtisodiy tebranishlar, xalqaro savdodagi o'zgarishlar, institutsional-siyosiy omillar, qonunchilikdagi yangilanishlar, ekologik xavf omillari hamda ijtimoiy jarayonlar kiradi.

Xalqaro valyuta jamg'armasining 2025-yil iyundagi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston so'nggi yillarda DXSh mexanizmini mamlakat infratuzilmasi va xizmat ko'rsatish sektoriga investitsiya jalb qilishning asosiy vositalaridan biriga aylantirdi. Shuningdek, XVJ O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik rivojlanishini tahlil qilish jarayonida loyihalar portfeli uch yil ichida 6,2 mlrd AQSh dollaridan 31 mlrd AQSh dollarigacha kengayganini qayd etib, biroq bu jarayon budget risklarining kuchayishi ehtimolini ham ko'rsatayotganligini hisobga olish kerakligini ta'kidlagan. Xususan, XVJning hisobotida 2021-yilda DXSh loyihalari portfeli hajmi taxminan 6,2 milliard AQSh dollarini (YalMning 8 foizi) tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil oxiriga kelib, bu ko'rsatkich 31 milliard AQSh dollarigacha yoki YalMning qariyb 27 foizigacha oshganligi qayd etilgan (1-rasm). Mazkur rasmda 2019–2030-yillar davomida davlat-xususiy sheriklik loyihalarining tarixiy hamda rejalashtirilgan hajmi yalpi ichki mahsulotga nisbatan foizlarda ifodalangan holda aks ettirilgan. Mazkur dinamik ko'rsatkichlar DXSh mexanizmlarining mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati tobora ortib borayotganini, shuningdek, uzoq muddatli infratuzilmaviy va ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirishda ushbu model muhim strategik vosita sifatida qaralayotganini ko'rsatadi.

2017–2024-yillarda DXSh asosida tuzilgan loyihalar soni va qiymati yildan-yilga o'sib borgan: 2017-yilda DXSh loyihalarining umumiy qiymati qariyb 500 mln AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yil oxirida u 4,3 milliard AQSh dollariga yetdi, 2024-yilda tuzilgan yangi DXSh shartnomalari hajmi taxminan 1,2 milliard AQSh dollarini tashkil qilgan. Hisobotga ko'ra, hozirda jami 70 dan ortiq yirik DXSh shartnomasi amalda mavjud bo'lib, ulardan eng ko'p ulush energetika va ijtimoiy infratuzilma (sog'liqni saqlash, ta'lim) sohalariga to'g'ri keladi.



1-rasm. 2019–2030-yillarda amalga oshirilgan va istiqbolda rejalashtirilgan DXSh loyihalari¹ (YalMga nisbatan, foizda)

1 <https://www.imf.org/-/media/files/publications/2024/uzbra2025002-source-pdf>.



XVJ tahliliga ko'ra, O'zbekistondagi DXShning rivojlanish tendensiyalari quyidagilar bilan izohlanadi:

Energetika sohasining yetakchi o'rni: 2023-yilga kelib, umumiy DXSh portfelining taxminan 65% hajmi elektr energiyasi ishlab chiqarish va taqsimlashga oid loyihalarga to'g'ri kelgan (xususan, bug'-gaz qurilmalari va quyosh elektr stansiyalari).

Ijtimoiy sohalarda DXSh ulushining o'sishi: XVJ hisobotida qayd etilishicha, sog'liqni saqlash va maktabgacha ta'lim obyektlarini DXSh asosida rivojlantirish bo'yicha loyihalar soni 2019-yildan 2024-yilgacha 7 barobar oshgan. Masalan, maktabgacha ta'limda 1000 dan ortiq bog'cha xususiy sheriklar ishtirokida tashkil etilgan.

Xorijiy investorlarning ishtiroki: davlat-xususiy sheriklikning moliyaviy hajmining 60% dan ortig'i xalqaro konsorsiumlar va chet ellik investorlardan jalb qilinayotgan mablag'lar hissasiga to'g'ri keladi. Bu O'zbekistonning xalqaro reytinglaridagi ijobiy o'zgarishlar va DXSh uchun soddalashtirilgan tartiblar bilan izohlanadi.

Raqamlashtirishning rivojlanishi: DXSh bitimlari ro'yxati va tender jarayonlari "dxsh.uz" platformasida ochiq e'lon qilinmoqda. XVJ ma'lumotiga ko'ra, 2022–2024-yillarda bitimlarning 80% dan ortig'i elektron tenderlar orqali tuzilgan².

Davlat-xususiy sheriklik loyihalari yirik hajmdagi investitsiyalar va uzoq muddatli investitsion-ekspluatatsion sikllar bilan tavsiflanadi. Loyihani ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida DXSh loyihasi duch keladigan turli shart-sharoitlar doimiy ravishda o'zgarib boradi, bu esa tashqi risklar, jumladan, siyosiy, bozor, iqtisodiy risklar bilan birgalikda muntazam ravishda ta'sir etuvchi risklar — moliyaviy, texnik va xavfsizlik risklariga duch keladi. DXSh faoliyatiga ta'sir etuvchi risklarni tashqi va ichki risklar sifatida quyidagicha tasniflash mumkin:

Tashqi risklar: siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy, texnologik, huquqiy, ekologik.

Ichki risklar: loyihaviy, texnik, tashkiliy, kadrlar bilan bog'liq, tijorat, mahsulotlar (xizmatlar) realizatsiyasi bilan bog'liq.

DXSh loyihalarini amalga oshirishda siyosiy risklar yetakchi risk turlaridan bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi.

Mamlakatdagi siyosiy vaziyatning o'zgarishi. Hukumatning almashinuvi yoki siyosiy ustuvor yo'nalishlarning o'zgarishi davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalarining shartlari yoki ustuvorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Davlat boshqaruvidagi ustuvor yo'nalishlarning o'zgarishi ayrim DXSh loyihalarining shartlari, muddatlari yoki amalga oshirish tartibini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirishi mumkin. Jumladan, misol sifatida AQShning 2025-yilda amalga oshirayotgan siyosatini keltirishimiz mumkin. 2025-yil may oyida AQSh va Xitoy o'zaro import tariflarini pasaytirish bo'yicha kelishuvga erishdi. Ushbu kelishuv Xitoydan import qilinadigan tovarlarga qo'yilgan tariflarni 145% dan 30% ga tushirdi.

Normativ-huquqiy noaniqlik. Davlat-xususiy sheriklikni tartibga soluvchi qonunchilik va qoidalardagi o'zgarishlar loyiha amalga oshirilishida qo'shimcha cheklovlar va to'siqlar vujudga kelishiga yoki uning qiymati oshishiga olib kelishi mumkin. Huquqiy barqarorlikning yetishmasligi uzoq muddatga mo'ljallangan investitsion loyihalarni rejalashtirish va amalga oshirish jarayonini murakkablashtiradi. Jumladan, Buyuk Britaniyaning Yevropa Ittifoqidan chiqishi (Brexit) DXSh rivojlanishi uchun sezilarli darajada normativ-huquqiy noaniqlikni keltirib chiqardi — ushbu holat Buyuk Britaniya va Yevropa Ittifoqi uchun taalluqlidir. Bojxona qoidalari, standartlar va tartibga solish tizimidagi o'zgarishlar investitsion loyihalarning narxi va bajarilishi muddatiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Davlat tomonidan tartibga solish shartlarining o'zgarishi. Investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida shartnoma shartlari, soliqqa tortish tartibi yoki ayrim bozor ishtirokchilari uchun imtiyozli shart-sharoitlarning o'zgarishi loyiha rentabelligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday holatlar, ayniqsa, bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda qonunchilik va soliq siyosatining takomillashuvi jarayonida yuzaga keladi. Shu sababli DXSh loyihalarida huquqiy barqarorlik, shaffof tartibga solish mexanizmlari va investorlar uchun aniq kafolatlar tizimini shakllantirish investitsiya muhitiga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mulkchilik rejimining o'zgarishi va aktivlar bilan bog'liq huquqiy risklar. Ayrim mamlakatlarda davlat-xususiy sheriklik loyihalari bo'yicha mulkchilik rejimi yoki aktivlardan foydalanish tartibi o'zgarishi mumkin. Bunday holatlar xususiy investorlar uchun huquqiy va moliyaviy noaniqliklarni kuchaytiradi. Masalan, 2021-yilda Qirg'izistonda Kumtor koni bo'yicha davlat boshqaruvi vaqtincha joriy etish yuzasidan qaror qabul qilingan. Keyinchalik loyiha operatori bo'lgan Centerra Gold kompaniyasi va Qirg'iziston hukumati o'rtasida muzokaralar olib borilib, 2022-yil aprel oyida kelishuvga erishilgan.

Valyuta va moliyaviy risklar. Siyosiy-institutsional vaziyatdagi o'zgaruvchanlik valyuta kursi tebranishi yoki moliyaviy nomutanosibliklar yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday holatlar DXSh loyihalarining qiymati, amalga oshirish muddati va moliyalashtirish jarayoniga bevosita ta'sir etadi. 2017–2018-yillarda O'zbekistonda valyuta bozorini liberallashtirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar mamlakat iqtisodiy siyosatida muhim bosqich bo'ldi. Valyuta bozorining erkinlashtirilishi DXSh loyihalarida moliyaviy va valyuta

2 <https://www.imf.org/en/Publications/CR/Issues/2025/06/23/Republic-of-Uzbekistan-Selected-Issues-567982>



risklarini samarali boshqarish zaruratini kuchaytirgan holda, eksport va import hajmining oshishiga, iqtisodiy faollikning rag'batlantirilishiga hamda tashqi savdo balansining yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Shaffoflik va hisobdorlik bilan bog'liq risklar. Shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi davlat-xususiy sheriklik loyihalarida boshqaruv noaniqliklari, qo'shimcha xarajatlar hamda investorlar ishonchining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli DXSh loyihalarida ochiq tender jarayonlari, raqamli monitoring tizimlari va samarali nazorat mexanizmlarini kuchaytirish investitsiya loyihalarining samaradorligi va ishonchligini oshirishga xizmat qiladi.

Jamoatchilik pozitsiyasi va ijtimoiy kelishuv bilan bog'liq risklar. Mahalliy aholi yoki ayrim guruhlar ijtimoiy, ekologik yoki boshqa sabablar tufayli davlat-xususiy sheriklik loyihalari bo'yicha turli e'tirozlar yoki muhokamalar bildirishi mumkin. Fikrimizcha, bunday holatlar loyiha amalga oshirilishi muddatining uzayishiga yoki uning umumiy qiymati oshishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun investitsion loyihalarni amalga oshirishda mahalliy aholi bilan ochiq muloqot o'rnatish, ularning ehtiyoj va xavotirlarini inobatga olish, loyihalarning ijtimoiy va ekologik ta'sirini chuqur tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Tashqi iqtisodiy risklar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi loyihalar uchun ehtimoliy risklar yoki noaniqliklar bo'lib, ular milliy iqtisodiyotdan tashqi omillar ta'sirida DXSh loyihalarining muvaffaqiyati yoki moliyaviy barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu kabi risklar aksariyat holatlarda global iqtisodiy vaziyat, jahondagi institutsional-siyosiy o'zgarishlar, xalqaro bitimlar va bozorlar konyunkturasi o'zgarishi bilan bog'liq bo'ladi. Bu kabi risklarni boshqarish uchun xalqaro iqtisodiy muhitni chuqur tahlil qilish va DXSh loyihalariga salbiy ta'sirni kamaytirishga xizmat qiladigan strategiyalarni ishlab chiqish talab etiladi. Tashqi iqtisodiy risklarga misol qilib valyuta risklari, foiz stavkalaridagi o'zgarishlar, makroiqtisodiy beqarorlik, savdo xavf-xatarlari va boshqalarni keltirish mumkin.

DXSh loyihalariga ta'sir etuvchi muhim tashqi risklar moliyaviy risklar bo'lib, loyiha qiymati, daromadliliigi va umumiy moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan omillarning keng doirasini qamrab oladi. Bu kabi risklar iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlar natijasida yuzaga keladi, ular DXSh ishtirokchilari tomonidan nazorat qilinishi yoki oldindan prognoz qilinishi murakkab hisoblanadi. Fikrimizcha, DXSh faoliyatiga ta'sir etuvchi tashqi moliyaviy risklarning turlari quyidagilardan iborat (1-jadval). DXSh faoliyatidagi ichki tashkiliy risklar odatda loyihani boshqarishning turli jihatlarini, tomonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar hamda loyihada ishtirok etuvchi har bir tashkilotning ichki dinamikasi bilan bog'liq bo'ladi.

1-jadval
DXShda yuzaga keladigan moliyaviy risklar va ularning turlari³

Moliyaviy risk turlari	Izoh
Valyuta kursi o'zgarishi	Asosiy aktivlar, qarz va daromadlarning turli valyutalarda bo'lishi loyihaning daromad-xarajat balansini buzilishi, chet el valyutasidagi qarzlarning qiymatlashishi.
Foiz stavkalari o'zgarishi	Bozor foiz stavkalarining ko'tarilishi moliyalashtirish xarajatlarini oshiradi, loyiha rentabelligiga salbiy ta'sir qiladi; past foiz stavkalari esa ijobiy ta'sir ko'rsatadi.
Inflyatsiya	Inflyatsiya darajasining kutilmagan darajada oshishi operatsion xarajatlar va mehnat resurslari bilan bog'liq xarajatlarni oshirib, loyihaning real daromadini kamaytirishi mumkin.
Moliyaviy likvidlikning yetishmasligi	Xalqaro kapital bozorlarida pul yetishmasligi yoki kredit qiyinchiliklari (masalan, global moliya inqirozlari) investitsiya va pul o'tkazmalarni kechiktirishi mumkin.
Suveren reyting pasayishi	Loyihani moliyalashtiruvchi davlatning kredit reytingi pasayganda, qarz olish xarajatlari oshadi va investor ishonchi pasayishi mumkin.
Xalqaro investitsion muhitning o'zgarishi	Xorijiy investorlar faoliyatiga ta'sir etuvchi xalqaro cheklovlar yoki investitsiya muhitidagi o'zgarishlar investitsiyalarni jalb qilish jarayonini murakkablashtirishi mumkin.
Tashqi kredit kafolatlari va sug'urta bozori risklari	Eksport kredit agentliklari va sug'urta kompaniyalari siyosatining o'zgarishi loyihaga tashqi kredit ta'minoti va kafolatlarning mavjudligini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirishi mumkin.

Ushbu risklar boshqaruvdagi xatoliklar, jarayonlarning samarasizligi, manfaatlar to'qnashuvi va axborot-kommunikatsiyadagi muammolar shaklida namoyon bo'lishi mumkin. DXSh loyihalarining murakkab "tabiati"ga asoslanib, davlat va xususiy mablag'larni umumiy maqsadga erishish uchun birlashtirish jarayonida tashkiliy madaniyat va ustuvorliklardagi farqlar natijasida risklar yuzaga kelishi mumkin. Ma'lumki, DXSh turli

3 Muallif tomonidan tuzilgan



manfaatdor tomonlarni o'z ichiga olib, ularning qarashlari va maqsadlari turlicha bo'lishi mumkin, bu esa ma'lum bir kelishmovchiliklar va loyihalarni amalga oshirishda kechikishlarga olib kelish ehtimolini vujudga keltiradi. Loyihani boshqarishdagi malaka yoki jamoa tajribasining yetarli emasligi singari boshqaruv risklari loyiha ijrosi va tugallanish muddatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu holat loyiha bo'yicha muddat va budjetning oshib ketishiga, bajarilgan ish va xizmatlar sifatining pasayishiga yoki hatto loyiha ijrosining vaqtincha to'xtashiga sabab bo'lishi mumkin. Boshqaruv ko'nikmalari yoki nazorat tizimlarining samarali emasligi resurslar va vaqt omillarining yo'qotilishi bilan birga hamkorlar o'rtasidagi o'zaro ishonch va muvofiqlikning pasayishiga olib kelishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat-xususiy sheriklik faoliyatidagi ichki tijorat risklari esa DXSh shaklida amalga oshirilayotgan loyihalarning moliyaviy barqarorligi va muvaffaqiyatiga ta'sir ko'rsatadigan omillarning keng doirasini qamrab oladi. Bunday risklar sheriklikning o'zida yuzaga keladi va ko'pincha ishtirokchi tomonlarning bevosita cheklovlari yoki muammolari, shuningdek, loyiha bilan bog'liq jarayonlar bilan bog'liq bo'ladi. Umuman olganda, kompaniya faoliyatidagi, jumladan, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) kontekstidagi ichki risklar ushbu loyiha yoki tashkilot ichida yuzaga keladigan va loyihalarning muvaffaqiyatli bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan muammolar majmuasidir. Ushbu risklar boshqaruv, texnik, texnologik, innovatsion, tashkiliy, kadrlar va tijorat kabi turli jihatlarini qamrab oladi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan "O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik" nomli tahliliy sharhda O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalarining so'nggi yillardagi jadal o'sish sur'atlari bilan bir qatorda, mazkur investitsiya mexanizmini amaliyotga tatbiq etish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtimoliy risklar ham atroflicha tahlil qilingan. XVJ ekspertlarining ta'kidlashicha, so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida davlat-xususiy sheriklik institutini rivojlantirish borasida sezilarli yutuqlarga erishilgan.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra esa, birgina 2023-yilda O'zbekiston davlat-xususiy sheriklik loyihalari doirasida 1,6 milliard AQSh dollari miqdorida olita loyiha bo'yicha shartnoma imzolagan. Bu ko'rsatkich o'z navbatida Yevropa va Markaziy Osiyoning past va o'rta daromadli mamlakatlari orasida yangi DXSh majburiyatlari umumiy hajmining deyarli 40 foizini tashkil etadi. DXSh loyihalari sonining keskin oshishi moliyaviy risklar ustidan qat'iy nazoratni kuchaytirishni taqozo etmoqda. 2025-yil uchun yangi kelishuvlar bo'yicha belgilangan maksimal miqdor 6,5 milliard AQSh dollari miqdorida belgilangan bo'lib, bu YalMning taxminan 6 foiziga teng. XVJ bu chegaraviy miqdorni yetarlicha yuqori deb hisoblaydi va kelgusida uni pasaytirish imkoniyati muhokama qilinmoqda.

Shuningdek, davlatning DXSh doirasidagi umumiy majburiyatlari uchun maksimal limit joriy etilishi masalasi ham ko'rib chiqilmoqda. Bunday choralar davlat va davlat tomonidan kafolatlangan qarz uchun amal qilayotgan 60% YalM miqdoridagi cheklovga qo'shimcha sifatida ko'zda tutilmoqda. Xalqaro valyuta jamg'armasining xulosalariga ko'ra, DXSh mamlakatga tashqi moliyalashtirish manbalariga, boshqaruv bo'yicha tajribaga ega bo'lish va xatarlarni yanada moslashuvchan taqsimlash imkonini beradi. Shu bilan birga, bunday loyihalar har bir bosqichda — rejalashtirishdan boshlab ijro bosqichiga qadar — alohida tayyorgarlik va tizimli monitoringni talab etadi. Shu bilan birga, yuqori xavflar tarkibiga davlat kafolatlari, mahsulotni sotib olish yoki resurslarni belgilangan narxlarda yetkazib berish bo'yicha majburiyatlar kiradi.

Albatta, davlat kafolatlari investorlarni jalb etishga yordam beradi, biroq ular kelgusida qo'shimcha moliyaviy majburiyatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Masalan, agar pullik avtomobil yo'lida transport oqimi yetarli bo'lmasa va yig'imgar xarajatlarni qoplamasa, davlat yuzaga kelgan farqni qoplash majburiyatini oladi. Xuddi shunday holat elektr energiyasi yoki suv tariflari kelishilgan darajadan past bo'lsa ham yuzaga kelishi mumkin. Bundan tashqari, XVJ boshqa mamlakatlar tajribasiga tayanib, vaqt o'tishi bilan "ilgari tuzilgan kelishuvlarni qayta ko'rib chiqish bo'yicha bosim" ehtimoli borligini qayd etadi. Bu esa yangi tashabbuslarni amalga oshirish tezligi va yuzaga kelayotgan risklar ustidan nazorat o'rtasida muvozanatni saqlash zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-son Farmoni. — URL: <https://lex.uz/docs/-8050769>
2. Mehar M.A.K. Financing Infrastructure and Economic Corridors: Role of Multilateral Agencies and Public-Private Partnership (PPP) // Reference Module in Social Sciences. — Amsterdam: Elsevier, 2024. — DOI: 10.1016/B978-0-44-313776-1.00310-X.



3. Cheng M., Chong H.Y., Liu G., Li Q. Strategies of perceived justice for added value in public-private partnership (PPP) projects // *Engineering, Construction and Architectural Management*. — 2025. — Vol. 32. — No. 12. — P. 8548–8570. — DOI: 10.1108/ECAM-04-2023-0336.
4. Karlsson P.S. Risk management in non-traditional public-private partnerships // *Continuity & Resilience Review*. — 2025. — Vol. 7. — No. 3. — P. 215–230. — DOI: 10.1108/CRR-10-2024-0042.
5. Azarian M., Shiferaw A.T., Lædre O., Wondimu P.A., Stevik T.K. Project ownership in public-private partnership (PPP) projects of Norway // *Procedia Computer Science*. — 2023. — Vol. 219. — P. 1838–1846. — DOI: 10.1016/j.procs.2023.01.481.
6. De Matteis F., Borgonovi E., Notaristefano G., Striani F. The contribution of public-private partnership (PPP) to sustainability: governance and managerial implications from a literature review // *Corporate Governance: The International Journal of Business in Society*. — 2025. — Vol. 25. — No. 1. — P. 144–159. — DOI: 10.1108/CG-03-2023-0103.
7. Рыбачёк А.С., Кельчевская Н.Р. Государственно-частное партнерство: современное состояние, проблемы и перспективы // *Интеллектуальные бизнес-процессы в промышленности: сборник научных трудов*. — Екатеринбург: Уральский федеральный университет имени первого Президента России Б.Н. Ельцина, 2024. — С. 351–355.
8. Манахов М.А. Государственно-частное партнерство и конкурентоспособность промышленных предприятий // *Human Progress*. — 2025. — Т. 11. — Вып. 1.
9. Dwight L. Uzbekistan and Public-Private Partnerships: Country Lessons, Republic of Uzbekistan // *IMF Selected Issues Paper*. — Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2025. — No. 2025/087. — DOI: 10.5089/9798229015455.018.
10. World Bank. Private Participation in Infrastructure (PPI) 2023 Annual Report. — Washington, D.C.: World Bank, 2024.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>